

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA

MAHSUS TA'LIM VAZIRLIGI

BUHORO DAVLAT UNIVERSITETI

HARBIY FAKULTETI

XALQARO GUMANITAR
HUQUQ ASOSLARI

fanidan ma'ruza matnlar
to'plami



BUHORO – 2008

100 nusxa. Buxoro shahri M. Iqbol ko'chasi, 11-uy
chopqirish korxonasida chop etildi. Buxorining 1024 Axbori
Buxoro Davlat universiteti Nizom Buxoriyda chop etildi

100 nusxa. Buxoro shahri M. Iqbol ko'chasi, 11-uy
chopqirish korxonasida chop etildi. Buxorining 1024 Axbori
Buxoro Davlat universiteti Nizom Buxoriyda chop etildi

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAHSUS

TA'LIM VAZIRLIGI

BUHORO DAVLAT UNIVERSITETI

HARBIY FAKULTETI

XALQARO GUMANITAR HUQUQ ASOSLARI
fanidan ma'ruza matnlar
tuplami

Bilim ko'chasi, 1000000 - ta'lim
Ta'lim sohasi: 140000 - O'qituvchi tayyorlash va pedagogika fani
Bakalavriat yo'nalishlari: 511200 - Chetqirqaqcha Harbiy Ta'lim

Mazkur fan dasturi bakalavriyat yo'nalishi: 51141200 Chaqiriqqacha harbiy ta'lim uchun mo'ljallangan bo'lib, "Xalqaro gumanitar huquqi" talablariga muvofiq holda O'zbekiston Respublikasining Mudofaa Doktrinasiga mos keladi. Boshqa tomondan esa, mamlakatimiz 1949 yildagi Jeneva konventsiyalari va 1977 yildagi qo'shimcha protokollarni ratifikatsiya qilishdan kelib chiqib bajarishi lozim bo'lgan majburiyatlarining amaldagi tadbiri hisoblanadi.

Ularda, jumladan, yuqoridagi hujjatlariga imzo chekkan davlat "Uni o'qitishni harbiy, imkon bo'lsa fuqarolar ta'limi o'quv dasturlariga kiritish majburiyatini oladi", deyiladi.

"Xalqaro gumanitar huquqi asoslari" mahsus kursining mazmuni "Yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik" fani o'qituvchilarida Xalqaro insonparvarlik huquqi bo'yicha zaruriy bilim va ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi.

Tuzuvchilar:

Abdullaev Y.Z. – Buxoro Davlat Universiteti harbiy fakulteti o'qituvchisi, mayor

Gafurov M.K. – Buxoro Davlat Universiteti Harbiy fakulteti boshlig'i vazifasini bajaruvchi, podpolkovnik

Ikromov L.B. – Buxoro Davlat Universiteti Harbiy fakulteti katta o'qituvchisi «Ushbu tayyorgarlik bo'limi» boshlig'i, podpolkovnik

Ibragimov B.B. – Buxoro Davlat Universiteti Harbiy fakulteti 4-kurs talabasi

Taqrizchi:

Temirov O'.H. – Buxoro Davlat Universiteti Harbiy fakulteti o'qituvchisi, kapitan.

Dastur Buxoro Davlat Universitetining o'quv metodik kengashida ko'rib chiqilgan va nashrga tavsiya etilgan

2008 yil « » daqi sonli majlis bayoni

KIRISH

1945 yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomi qabul qilinishi bilan urush jahon hamjamiyati tomonidan rasmiy va yuridik tarzda taqiqlandi.

Shunga qaramasdan, bugungi kunda qurolli mojarolar bir qancha ko'rinishlarda er kurrasining go'u er – goh bu erida namoyon bo'lib turibdi.

Hozirgi zamonada ham xalqaro qurolli mojarolar, ichki qurolli nizolar, shuningdek, qurolli zo'ravonlik holatlari bilan hisoblashishga to'g'ri kelmoqda.

Bunday hollarda yuksak darajadagi professionalizmga ega bo'lish va qurolli mojarolar tufayli yuzaga keladigan favqulodda vaziyatlarda ham og'ishmay bajarish talab etiladigan muayyan me'yorlarni puhta bilish talab etiladi. Bu me'yorlar xalqaro gumanitar huquq me'yorlaridir.

Xalqaro gumanitar huquq – qurolli mojarolar davrida qo'llaniladigan va harbiy harakatlarda ishtirok etmaydigan shahslar (ya'ni fuqaro aholisi) hamda qurolli harakatlarda qatnashishni to'xtatgan shahslar (ya'ni, qurolli kuchlarning yarador va bemorlari hamda harbiy asirlar) bilan munosabatlarga doir me'yorlar tizimidir.

Xalqaro gumanitar huquq tarkibida qurollarning ayrim turlaridan foydalanish va urush olib borish usulini tanlashga oid me'yorlar ham mavjud. Bu huquqqa oid qoidalar xalqaro qurolli mojarolar bilan bir qatorda ichki nizolar va fuqarolar urushi vaziyatlarida ham qo'llaniladi.

Xalqaro gumanitar huquq hujjatlari jahonda eng ko'p ratifikatsiya qilingan xalqaro shartnomalar bo'lib, 191 davlat 1949 yilgi Jeneva konventsiyalari ishtirokchisi va 150 dan ortiq davlat esa 1977 yilgi ularga Qo'shimcha protokollar ishtirokchisi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillik yillarida ko'plab muhim xalqaro shartnomalar va konventsiyalarga qo'shildi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining Muqaddimasida qayd etilganidek, O'zbekiston «xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan qoidalarini ustunligini» tan oladi. Buning tasdiqi o'laroq, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Ichki xizmat Nizomining 19-moddasida har bir harbiy xizmatchi harbiy harakatlarda olib borish, yaradorlar, bemorlar bilan, jangovar harakatlarda olib borilayotgan joylardagi harbiy bo'linmalarni bilishi va ularga rioya etishi lozimligi belgilab berilgan.

Shu ma'noda, xalqaro huquq asoslaridan habardorlik fuqarolarimizning o'z huquqlarini himoya etishlari nuqtai nazaridan ham muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi 1949 yilgi Jeneva konventsiyalari va 1977 yilgi ularga Qo'shimcha protokollarga 1993 yil sentyabrda qo'shilgan.

Bundan tashqari mamlakatimiz 1997 yil avgustdan «Oddiy qurollarning haddan ortiq jarohat etkazadigan va (nishop) tanlamaydigan xarakterda deb hisoblanuvchi aniq turlarini qo'llashni cheklash yoki ta'qiqlash to'g'risida» 1980 yil 10 oktyabrda qabul qilingan konventsiya va uning protokollariga qo'shildi, xalqaro gumanitar huquq ko'lamida insonning asosiy huquq va e'timliklarini xalqaro darajada himoya etishni tartibga solishni, shuningdek, bu sohada barqarorlikni ta'minlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi.

Xalqaro gumanitar huquqning O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tarkibi tomonidan o'zlashtirilishi va unga amal qilinishi inson huquqlari haqidagi bilimlarni chuqur o'rganish va ularni keng tarqatishga ko'maklashadi.

Urushda hamma narsa insoniylikka ziddi va urushda hamma narsa insoniylikni saqlab qolishga chorlaydi. Urush huquqi me'yorlarining vazifasi va ma'muriy-mohiriyati esa ana shu ikki tomonni bir-biri bilan qaratib qo'yishdan iborat.

Buxoro Davlat universiteti «Ziyo Rizograf» ishlab
chiqarish korxonasida chop etildi. Buyurtma №54 Adali
100 nusxa. Buxoro shahri M.Iqbol ko'chasi, 11-uy